

SHAXS TARAQQIYOTINI DAVRLARGA BO'LISH

Yuldasheva Sojida Zoyirovna

*O'zMU Jizzax filiali "Oila psixologiyasi"
kafedrasi o'qituvchisi*

Murodova Sitora Muhiddinovna

Karimova Nilufar Faxriddin qizi
O'zMU Jizzax filiali talabalari

Tayanch tushunchalar: Yosh davrlari, ontogenetika, pedagogik-psixologiya, psixik taraqqiyot, rivojlanish bosqichlari, inqirozlar, shaxs kamoloti, shaxs kamoloti bosqichlari.

Turning rivojlanishidan-filogenezdan farqli ravishda individning taraqqiyoti "ontogenetika" tushunchasi bilan ishlataladi. Bu tushunchani nemis biologi E. Gekkell taqdim etgan. Psixika ontogenezi insonning tug'ilganidan to umrining yakunigacha davom etadigan uzuksiz rivojlanishi sanaladi. Yosh psixologiyasi –psixologiyaning alohida sohasi bo'lib, inson taraqqiyotining dalillari va qonuniyatlarini o'rGANADI.

Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan insonlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rGANISH - yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatashning zarur shartidir.

Inson - biosotsial mavjudotdir. Uning birligi, bir tomondan, kishining psixik, tug'ma ravishda tashkil topgan xususiyatlari (masalan, ko'rish yoki eshitish sezgilarining, shuningdek, oliv nerv tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari), ikkinchi tomondan esa faoliyatning ongli sub'ekti va ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokshisi sifatida uning xulq-atvor (masalan, axloqiy odatlar) xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy evropa mamlakatlari va AQSHda Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlarida ilmiy tadqiqotlarga asoslangan qator asarlar paydo bo'ldi. Amerikalik psixolog U.Jems "O'qituvchilar bilan psixologiya to'g'risida suhbat" (1902) asarida yosh davrining xususiyatlari haqidagi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni chuqur tahlil qildi. K.Byuler xonim (1879–1963) o'zining ilmiy tadqiqotlarida faoliyatning har xil yosh davrlaridagi rolini, faoliyat turlarida fantaziya, tafakkur, nutq jarayonlarining rivojlanishini, aqliy faoliyat hamda uning rivojlanish bosqichlari (instinkt, dressura, intellekt)ni, shaxsning shakllanishida biologik va ijtimoiy omillarning ahamiyatini izshil o'rgandi.

Mazkur sohada tubdan farqlanuvshi g'oyalar, nazariyalar yuzaga keldi.

Yosh davrlari davrlarini tabaqalash nazariyalari

Psixologiya fanida yosh davrlarini davrlarga tabaqalash bo'yisha qator mustaqil nazariyalar mavjud, ular inson shaxsini tadqiq qilishga har xil nuqtai nazardan yondashadi va muammoning mohiyatini turlisha yoritadi. Ularga biogenetik, sotsiogenetik, rollar nazariyasidir, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalistik, bixevoiristik, psixodinamika nazariyalarni kiritish mumkin.

Ulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz: Biogenetik nazariyada insonning biologik etilishi bosh omil sifatida qabul qilingan, qolgan jarayonlarning rivojlanishi ixtiyoriy bo'lib, ana shu omil bilan o'zaro bog'liqdir. Mazkur nazariyaga binoan, rivojlantirishning bosh maqsadi biologik determinantlarga (aniqlovshilarga) qaratiladi va ulardan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kelib shiqadi.

Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko'rinishi sotsiogenetik nazariyadir. Bu nazariyada shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlarni jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish (sotsializatsiya) usullari, atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabat vositalari asosida tuchuntiriladi. Ijtimoiylashish nazariyasiga ko'ra, inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

G'arbning eng muhim nazariyalaridan biri – rollar nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra, jamiyat o'zining har bir a'zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakatning barqaror usullari majmuasini yaratadi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo'lган maxsus rollar uning xulq-atvorida, boshqalar bilan munosabatida sezilarli iz qoldiradi.

AQSHda individual tajriba va bilimlarni o'zlashtirish (ko'nikish) nazariyasi keng tarqalgan. Mazkur nazariyaga binoan, shaxsning hayoti va voqelikka munosabati, ko'nikmalarni egallashi va bilimlarni o'zlashtirishi qo'zg'atuvshining barqarorligiga bog'liqdir.

Psixikaning irrasional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo'lmish emotsiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur nazariyaning yirik namoyondalaridan biri - bu amerikalik psixolog E. Eriksondir. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o'ziga xos betakror xususiyatga egadir.

Birinchi davr - go'daklik. Ushbu davrda go'dakda ongsizlikka asoslangan tashqi dunyoga nisbatan "ishonch" tuyg'usi vujudga keladi. Buning bosh sababchisi ota-onaning mehr-muhabbati, g'amxo'rliqi va jonkuyarligining nishonasidir. Agarda go'dakda ishonch negizi paydo bo'lmasa, balki borliqqa nisbatan ishonchsizlik hissi tug'ilsa, u taqdirda voyaga yetgan odamlarda mahdudlik, umidsizlik shaklida aks etuvchi xavf vujudga kelishi, ehtimol.

Ikkinchi davrda, ya'ni ilk bolalikda jonzodda yarim mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi shakllanadi yoki aksincha, ularning qarama-qarshisi bo'lmish uyat va

shubha hissi hosil bo'ladi. Bolada mustaqillikning o'sishi, o'z tanasini boshqarishga keng imkoniyat yaratib, bo'lg'usida shaxs xususiyatlariiga aylanuvchi tartib va intizom, mas'uliyat, javobgarlik, hurmat tuyg'ularini tarkib toptirishga puxta zamin hozirlaydi.

Uchinchchi davr - o'yin yoshi deb atalib 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'ziga qamrab oladi. Mazkur davrda tashabbus tuyg'usi, qaysidir ishni amalga oshirish va bajarish maylini tarkib toptiradi. Mabodo unda xohish-istikani ro'yobga chiqarishning yo'li to'sib qo'yilsa, ushbu holatda bola o'zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur yosh davrida davra, ya'ni guruhiy o'yin, tengqurlari bilan muloqotga kirishish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi, natijada bolaning turli rollar sinab ko'rishiga, xayoloti o'sishiga imkon yaratiladi. Xuddi shu davrda boladaadolat tuyg'usi, uni tushunish mayli tug'ilashadi.

To'rtinchi davr - maktab yoshi deb nomlanib, undagi asosiy o'zgarishlar ko'zlagan maqsadga erishish qobiliyati, uddaburonlik va mahsuldarlikka intilish tuyg'usi bilan ajralib turadi. Uning eng muhim qadriyati - omilkorlik va mahsuldarlikdan iboratdir. Ushbu yosh davrining salbiy jihatlari (illatlari) ham ko'zga tashlanadi va ularning qatoriga ijobjiy xislatlari yetarli darajada bo'limganligi, ongi hayotning barcha qirralarini qamrab ololmasligi, muammolarni yechishda aql-zakovatning yetishmasligi, bilimlarni o'zlashtirishda qoloqligi (sustligi) va hokazo. Xuddi shu davrda shaxsda mehnatga nisbatan individual munosabati shakllana boshlaydi.

Beshinchi davr - o'spirinlik - o'zining betakror xislati, individualligi va boshqa odamlar bilan keskin tafovutlanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, o'smirlik shaxs sifatida noaniqlik, muayyan rolning uddalamaslik, qat'iyatsizlik singari nuqsonlarga (illatlarga) egadir. Mazkur davrning eng muhim xususiyati "rolni kechiktirish"ning o'zgarishi hisoblanib, birmuncha taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishining daqiqasidir. Unda ijtimoiy hayotda bajarayotgan rollarining ko'لامi kengayadi, lekin ularning barchasini jiddiy egallash imkoniyati mavjud bo'lmaydi, vaholanki bu kezda o'spirin rollarda o'zini sinab ko'rish bilan cheklanadi, xolos. Erikson o'spirinlarda o'z-o'zini anglashning psixologik mexanizmlarini batafsil tahlil qiladi, unda vaqtini yangicha his qilish, psixojinskiy qiziqish, patogen (kasallik qo'zg'atuvchi) jarayonlar va ularning turli ko'rinishlari namoyon bo'lishini sharhlaydi.

Oltinchi davr - yoshlik boshqa odamga (jinsga) nisbatan psixologik intim yaqinlashuv qobiliyati (uquvi) va ehtiyoji vujudga kelishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, jinsiy mayl bu sohada alohida o'rin tutadi. Bundan tashqari, yoshlik tanholik va odamovilik kabi bexosiyat xususiyatlari bilan tafovutlanadi.

Yetinchi davr - yetuklik davri deb atalib, hayot va faoliyatning barcha sohalarida (mehnatga, ijodiyotga, g'amxo'rlikda, pusht qoldirishda, tajriba uzatishda va boshqalarda) mahsuldarlik tuyg'usi unga uzlusiz ravishda hamroh bo'ladi va ezgu niyatlarning amalga oshishida turtki vazifasini bajaradi. Shuningdek, mazkur davrda

ayrim jihatlarda turg'unlik tuyg'usi nuqson (illat) sifatida hukm surishi ehtimoldan holi emas.

Sakkizinchi davr- ya'ni qarilik inson tariqasida o'z burchini uddalay olganligi, turmushning keng qamrovligi, undan qanoatlanganligi (qoniqqanligi) tuyg'ulari bilan tavsiflanadi. Salbiy xususiyat sifatida ushbu yoshda hayotdan, faoliyatdan noumidlilik, ulardan ko'ngil sovish his-tuyg'ularini ta'kidlab o'tish o'rinnlidir. Donolik, soflik, gunohlardan forig' bo'lishlik bu yoshdagi odamlarning eng muhim jihat, saxovati hisoblanadi, binobarin, har bir alohida olingen holatga nisbatan shaxsiyat va umumiyat nuqtai nazardan qarash ularning oliy himmati sanaladi7.

Olim o'z asarlarida har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini shuqur ilmiy ta'riflay olgan. Eng muhimi shaxs ruhiyatidagi yangilanishlar haqida ilmiy va amaliy ahamiyatga molik mulohazalar bildirgan. L.S.Vigotskiyning yosh davrlarini tabaqlash nazariyasi ham ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega, uning rivojlanishini amalga oshiruvshi inqirozlar roli to'g'risidagi mulohazalari va olg'a surgan g'oyalari hozirgi kunning talabiga mosdir.

L.S.Vigotskiyning shog'irdi L.I.Bojovish insonning kamol topishini yosh davrlariga bo'lishda motivlarni asos qilib oldi, shuning uchun bu bo'lishni motivatsion yondashish, deb atash mumkin. L.I.Bojovichning mulohazasiga ko'ra, yosh davrlari quyidagi bosqichlardan iborat: birinshi bosqich – chaqaloklik: tug'ilgandan 1 yoshgacha; ikkinshi bosqich – motivatsion tasavvur: 1 yoshdan 3 yoshgacha; ushinshi bosqich – "Men"ni anglash davri: 3 yoshdan 7 yoshgacha; to'rtinshi bosqich – ijtimoiy jonzotlikni anglash davri: 7 yoshdan 11 yoshgacha; beshinshi bosqich – a) o'zini o'zi anglash davri: 12 yoshdan 14 yoshgacha; b) o'z o'rnini belgilash (topish) davri: 15 yoshdan 17 yoshgacha.

Umuman, psixologlar tomonidan yosh davrlarini davrlarga tabaqlashtirishning puxta ilmiy-metodologik negizga ega bo'lган qator nazariyalari ishlab shiqilgan. Ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta hissa bo'lib qo'shildi, amaliy va nazariy muammolarni hal qilishda keng qo'llanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla, Sharafitdinov, and Yuldasheva Sojida Zoirovna. "ZAMONAVIY AXBOROTLASHTIRISH JARAYONLARINING SHAXS INDIVIDUAL XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2022): 432-436.
2. Zoirovna, Yuldasheva Sojida, and Nizomov Bekhruz Umarovich. "PSYCHOLOGY OF TRUST AND SECURITY." Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences 1.12 (2022): 153-161.

3. Yuldasheva, Sojida. "IA KARIMOV ASARLARIDA YUksak MA'naviyatli shaxsni shakllantirish g'oyalari." Журнал Педагогики и психологии в современном образовании 1.4 (2021).
4. Zubaydullaevna, T. N., Zoirovna, Y. S., Ugli, N. B. U., & Kizi, A. M. E. (2023, January). CONSIDERATION OF PSYCHOLOGICAL WAYS IN QUICK MEMORIZATION PROCESS ENGLISH LANGUAGE. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 29-35).
5. Юлдашева Сожида, & Мирзаахматов Абдурахмон. (2023). МОЛОДЕЖНАЯ КИБЕРПСИХОЛОГИЯ. ВРЕД И ПОЛЬЗА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ ДЛЯ СОВРЕМЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 348–354. Retrieved from <https://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/453>
6. Zoirovna, Y. S., & Narziyevna, T. M. (2023). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH NAZARIY ASOSLAR
7. Юлдашева, С. З. (2023). ОИЛАЛАРНИ МУСТАХКАМЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ.
8. Юлдашева, С., Бехруз, Н., & Эшматов, У. (2023). КИБЕРПСИХОЛОГИЯ СОВРЕМЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ. ВРЕД И ПОЛЬЗА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 321-326.
9. Nigora, S., Go'zal, Q., & Shoxista, Z. (2023). O 'SMIR QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA OILANING ROLI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 330-333.
10. Nigora, S., & Munisa, O. K. (2023). SHAXSLARARO MULOQOTDA UCHRAYDIGAN QIYINCHILIKLAR. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 327-330.
11. Nigora, S., Ilmira, Y., & Zulkumor, X. (2023). TORTINCHOQLIK VA UNING PSIXOLOGIK SABABLARI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 323-326.
12. Hakimova, S. (2023). Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar oniga ta'siri. Zam'onaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lif va amaliyot integratsiyasi: muammolari va yechimlari .